

IN

TER EDUCATION


&

GLOBAL STUDY

INSPIRATION FOR
THE
MODERN
RESEARCHER

2025
VOL.3. №4

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и
методический журнал
Scientific-theoretical and
methodological journal



2992-9024

ISSN

o'rgatish an'analari		
Xalikov S.R.	Zamonaviy arxitekturaning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ratsionalizm yo'nalishidagi "chikago maktabi	542-552
Erejepov T.	Talabalarning musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishni oshirishning ahamiyati	553-560
Kurbanova A.T.	San'at ta'limini raqamlashtirishning mavjud holati	561-568
Ahmedov F.	Madaniyat va san'at muassasalarida reja tuzish va hisobot yozish prinsiplari	569-578
Kobilova G.Sh.	Xor bilan vokal-intonatsion ish olib borish xor ijrosining badiiy ifodaliligidagi asos sifatida	579-586
Rahmatullayeva Z.S.	Musiqa orqali yosh avlodni tarbiyalashning nazariy asoslari	587-594
Eshimuratova A.A.	Yoshlar hayotida kino san'atining ta'siri va asosiy jihatlari	595-600
19.00.00 – Psixologiya fanlari		
Jumayev Y.O'.	Pedagogik faoliyatda kasbiy kuyish sindromining psixologik oldini olish yo'llari	601-608
Razzoqova S.Sh.	Ayollar boksida psixologik tayyorgarlik va motivatsiya omillari: sportchilarning yondashuvi va murabbiylar tajribasi	609-616
Abdullayeva R.M.	Ta'lim va hayot sifatini oshirish- bugungi kun zarurati sifatida	617-627
Xalilova M.N.	Maktab yoshidagi o'spirinlarning emotSIONAL munosabatlarda o'ziga xos ijtimoiy-psixik xususiyatlar	628-636
Turg'unov N.SH.	Harbiylashtirilgan oliy ta'lim timizi kursantlarini o'quv motivatsiyasini takomillashtirish strategiyalari	637-645
Nurmuxamedov B.X.	Qadriyatlar tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik negizlari	646-651

Original paper

MILLIY SURDOPEDAGOGIKADA FONETIK RITMIKANING O'RNI



© O.S. Ishmatova^{1✉}

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent, Uzbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqola kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikaning o'rni va samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda milliy surdopedagogikada fonetik ritmikaning ta'siri, sensor integratsiya yondashuvlari va musiqali ritmika mashg'ulotlarining korreksion metodikasi yoritilgan. O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda harakat, ritm va nutqning uyg'un ishlashi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Maqlada eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda fonetik ritmikaning fiziologik, psixofiziologik va korreksion imkoniyatlari, shuningdek, ularning mustaqil nutqni egallashida muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Fonetik ritmika orqali nutq va eshituv ko'nikmalarini shakllantirish, bolalar nutqining rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatish mumkinligi ilmiy asoslanadi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi — milliy surdopedagogikada fonetik ritmika mashg'ulotlarining ahamiyatini aniqlash, ularning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq rivojiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini o'rganishdan iborat. Shu bilan birga, fonetik ritmika vositasida bolalarning kommunikativ malakalarini rivojlantirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish ham maqola doirasida ko'zda tutiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida surdopedagogikaga oid ilmiy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, maxsus ta'lim sohasidagi amaldagi normativ hujjatlar o'rganildi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat, eksperiment, fonetik ritmika darslarining tahlili kabi metodlardan foydalanildi. Nutqida muammosi bo'lgan maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan olib borilgan amaliy mashg'ulotlar orqali ritmik harakatlar, musiqiy talaffuz va artikulyatsion mashqlarni o'z ichiga olgan fonetik ritmika usullarining samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik ritmika mashg'ulotlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda quyidagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi: talaffuz aniqligining yaxshilanishi; nafas olishni boshqarish va nutq tempi ustidan nazoratning shakllanishi; motorika va eshituv koordinatsiyasining rivojlanishi; jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalarining mustahkamlanishi. Shuningdek, noto'g'ri tashkil etilgan fonetik ritmika mashg'ulotlari quyidagi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin: bolalarda charchoq va e'tiborning susayishi; topshiriqlarning murakkabligi tufayli qiziqishning pasayishi; harakat va nutqni uyg'unlashtirishda qiyinchiliklar.

XULOSA: fonetik ritmika mashg'ulotlari milliy surdopedagogikada eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogning individual yondashuvi, bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariiga mos mashg'ulotlar tanlashi, musiqiy ritm va harakat uyg'unligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Fonetik ritmika nafaqat talaffuzni, balki bolaning umumiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashuvini ham ta'minlovchi samarali metodik yo'nالishdir.

Kalit so'zlar: kar bolalar, zaif eshituvchi bolalar, fonetik ritmika, sensor integratsiya, musiqali ritmika, nutqni rivojlantirish, eshituv idroki, harakat va nutq uyg'unligi, korreksion pedagogika, surdopedagogika, nutqiy faoliyat.

Iqtibos uchun: Ishmatova O.S. milliy surdopedagogikada fonetik ritmikaning o'rni // Inter education & global study. 2025. №4. B.46–53.

РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СУРДОПЕДАГОГИКЕ

© О.С. Ишматова^{1✉}

¹Чирчикский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная статья посвящена изучению роли и эффективности фонетической ритмики в развитии речи у глухих и слабослышащих детей. В исследовании рассматривается влияние фонетической ритмики в контексте национальной сурдопедагогики, подходы сенсорной интеграции и методика коррекционной работы с использованием музыкально-ритмических упражнений. Показано, что согласованность движений, ритма и речи играет важную роль в развитии речевых навыков у обучающихся. В статье подчеркиваются физиологические, психофизиологические и коррекционные возможности фонетической ритмики в работе с детьми с нарушением слуха, а также её значимость в формировании самостоятельной речи. Научно обоснована эффективность комплексного воздействия фонетической ритмики на развитие речевых и слуховых навыков у детей.

ЦЕЛЬ: определить значение занятий по фонетической ритмике в национальной сурдопедагогике и изучить их положительное влияние на развитие речи у детей с нарушением слуха. Также в рамках исследования рассматриваются возможные проблемы, возникающие в процессе применения фонетической ритмики, и разрабатываются эффективные методические подходы к их решению.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были изучены научные труды по сурдопедагогике, методические пособия, а также действующие нормативные документы в сфере специального образования. Применялись методы наблюдения, интервью, эксперимента и анализа занятий по фонетической ритмике. Эффективность методик фонетической ритмики, включающих ритмичные

движения, музыкальную артикуляцию и артикуляционные упражнения, была оценена на основе практических занятий с детьми дошкольного возраста, имеющими речевые нарушения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что занятия по фонетической ритмике вызывают у детей с нарушениями слуха следующие позитивные изменения: улучшение чёткости произношения; формирование контроля за дыханием и темпом речи; развитие моторики и слуховой координации; укрепление навыков участия в коллективной деятельности.

Однако неправильно организованные занятия по фонетической ритмике могут привести к следующим отрицательным последствиям: усталость и снижение концентрации у детей; потеря интереса из-за сложности заданий; трудности в согласовании движений и речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: фонетическая ритмика является важным средством в развитии речи у детей с нарушениями слуха в национальной сурдопедагогике. Индивидуальный подход педагога, подбор упражнений с учетом возраста и психофизиологических особенностей ребёнка, а также согласование музыкального ритма с движением — все это приобретает особую актуальность. Фонетическая ритмика способствует не только улучшению произношения, но и общему развитию ребёнка, его социальной адаптации и становлению речевой активности.

Ключевые слова: глухие дети, слабослышащие дети, фонетическая ритмика, сенсорная интеграция, музыкальная ритмика, развитие речи, слуховое восприятие, согласование движения и речи, коррекционная педагогика, сурдопедагогика, речевая деятельность.

Для цитирования: Ишматова О.С. Роль фонетической ритмики в национальной сурдопедагогике // Inter education & global study. 2025. №4. С. 46–53.

THE ROLE OF PHONETIC RHYTHMICS IN NATIONAL SURDOPEDAGOGY

© Ozoda S. Ishmatova^{1✉}

¹Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is devoted to the study of the role and effectiveness of phonetic rhythmics in the development of speech in deaf and hard-of-hearing children. The research examines the impact of phonetic rhythmics within the context of national surdopedagogy, approaches to sensory integration, and methods of correctional work using musical-rhythmic exercises. The importance of the coordinated interaction between movement, rhythm, and speech is highlighted as a crucial factor in the development of speech skills. The article emphasizes the physiological, psychophysiological, and correctional potential of phonetic rhythmics in working with children with hearing impairments, as well as its significance in the formation of independent speech. The

complex influence of phonetic rhythmics on the development of speech and auditory skills in children is scientifically substantiated.

AIM: the main purpose of this article is to determine the importance of phonetic rhythmics classes in national surdopedagogy and to study their positive impact on the speech development of children with hearing impairments. The study also analyzes potential challenges in the application of phonetic rhythmics and proposes effective methodological approaches to overcome them.

MATERIALS AND METHODS: during the study, scientific works on surdopedagogy, methodological manuals, and current normative documents in the field of special education were analyzed. Methods such as observation, interview, experiment, and analysis of phonetic rhythmics lessons were used. The effectiveness of phonetic rhythmics techniques — including rhythmic movements, musical articulation, and articulation exercises — was evaluated through practical sessions with preschool-aged children experiencing speech disorders.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that phonetic rhythmics classes in children with hearing impairments lead to the following positive changes: improvement in pronunciation clarity; development of breath control and speech tempo management; enhancement of motor skills and auditory coordination; strengthening of participation skills in group activities.

However, improperly organized phonetic rhythmics classes may lead to the following negative outcomes: fatigue and decreased concentration in children; loss of interest due to the complexity of tasks; difficulties in coordinating movement and speech.

CONCLUSION: phonetic rhythmics is an important tool in the development of speech in children with hearing impairments within national surdopedagogy. An individual approach by the teacher, the selection of exercises suitable for the child's age and psychophysiological characteristics, and the alignment of musical rhythm with movement are of particular importance. Phonetic rhythmics contributes not only to improved pronunciation, but also to the child's overall development, social adaptation, and formation of speech activity.

Keywords: deaf children, hard-of-hearing children, phonetic rhythmics, sensory integration, musical rhythmics, speech development, auditory perception, coordination of movement and speech, correctional pedagogy, surdopedagogy, speech activity.

For citation: Ozoda S. Ishmatova. (2025) 'The Role of Phonetic Rhythmics in National Surdopedagogy' // Inter education & global study. (4). pp. 46–53. (In Uzbek).

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishi ta'lif-tarbiyaviy jarayonning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bunday bolalar bilan olib boriladigan maxsus pedagogik ishlanmalar, ayniqsa nutqni shakllantirish va rivojlantirish metodikasi ularning ijtimoiylashuvi va umumta'lif muassasalarida muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlashda muhim omil sanaladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy

izlanishlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy faoliyatini harakat, sezgi va ritm asosida rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Shu jihatdan fonetik ritmika mashg'ulotlari orqali ularning og'zaki nutqini shakllantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.



U.Y.Fayziyeva

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda fonetik ritmika mashg'ulotlarining samaradorligini asoslab berish. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish masalasi mahalliy olimlarimizdan U.Y.Fayziyeva (zaif eshituvchi bolalarga savod o'rgatish ish tizimi), D.A.Nazarova (maktabgacha ta'lif davrida kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini samarali o'stirish ish tizimi), F.U.Qodirova (kar va zaif eshituvchi bolalarning so'zlashuv nutqini shakllantirish), Z.N. Mamarajabova (Adabiy ta'lif jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini rivojlantirish), G.Abdullayeva (eshitish idroki va talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha 1-2-sinflarning kar o'quvchilari bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ish), R.Raximova (zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik qurilishini shakllantirish ish tizimi) tomonidan o'rjanilgan.

U.Y.Fayziyeva zaif eshituvchi bolalarni savodga o'rgatish ishlarining propedevtika davri uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqqan. Bunda bolalarga tovush-xarfni o'rgatishda tayyorlov mashqlariga e'tibor qaratgan. Bu davrda o'quvchilarning mayda qo'l motorikalarini rivojlantirish, to'g'ri yozishga va tovushni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishning o'zbek tili tovushlar tasnifiga asoslangan yondashuvlar muhimdir.



F.U.Qodirova

F.U.Qodirova kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining ifodaliligi va aniqligini rivojlantirishda yakka mashg'ulotlar muhimdir. Bu mashg'ulotlarda har bir o'quvchining individual imkoniyatlari e'tiborga olinadi. F.U.Qodirova sensor integratsiya tushunchasini amaliyatga joriy etdi. Sensor integratsiya bolalardagi barcha sezgilarni umumlashtirgan holda nutqiy faoliyatni va uning asosida muloqot muhitini yuzaga keltiradi.

Bunda o'z-o'zidan kar va zaif eshituvchi bolalar eshituv sezgisining o'rniga boshqa sezgilarni ishlatish samarali ekanligini ta'kidlangan.

Ritmika, Musiqali ritmika mashg'ulotlarida sensor integratsiya muhitining yaratilishiga erishish imkoniyati kengdir. Demak o'quvchilarni nutqiy faoliyatga undash va uning vositasida muloqotga o'rgatish ishlarini ritmika mashg'ulotlari bilan integratsiyalash mumkin. Shuning uchun fonetik ritmika sensor integratsiyaga tayanishini ochib beruvchi bir qator tavsiyflarni keltiramiz.

Birinchidan, fonetik ritmikada o'quvchilarning harakatlarni ko'rishi va takrorlashi amalga oshadi. Demak ko'rish va harakat uyg'unlashdi.

Ikkinchidan, har bir harakatning muayyan til birligi bilan uyg'unlashishi orqali o'quvchilarning nutqi rivojlanadi. Harakat va nutq uyg'unlashdi.

Uchinchidan, o'quvchilarga musiqa eshitiriladi, ular ohangni eshitadi (havo to'lqinlarini xis qilish mumkin, eshitish apparati bor bo'lsa, eshitadi), o'rtoqlarining nutqiy ifodalarini ham tinglaydi va parallel ravishda harakatlarni ham bajaradi. Eshitish, nutq va harakat uyg'unlashdi. Shu tarzda ritmika mashg'ulotida sensor integratsiya jarayoni amalga oshadi.

X.S.Raximova koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy reabilitatsiyasi bo'yicha izlanishlar olib borgan. Olim eshituv-nutqiy reabilitatsiya texnologiyalarini tibbiy-pedagogik-psixologik yondashuvlar va rivojlantiruvchi ta'lim metodlari bilan integratsiyalashuvi asosida bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga erishgan. Uning fikricha koxlear implantli bolalar bilan ishslashda ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kattalar tomonidan tashkil etilgan o'yinlar, ayniqsa harakatli o'yinlar bolalarning e'tiborini jalg etadi. Demak fonetik ritmika koxlear implantli bolalar nutqini rivojlantirishda ham samarali metodika hisoblanadi.

Z.N.Mamarajabovaning fikricha 1,5-2 yoshli bolada kattalar xatti-harakatiga, nutqiga taqlid qilish ehtiyoji yuqori bo'ladi. Olim bolalarning bu urinishlaridan oqilona foydalangan holda harakatdagi taqlidga talaffuzni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bois fonetik ritmika usulini maktabgacha yoshdagagi bolalarning talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarning asosiy usullaridan biri deb hisoblaydi.



Z.N.Mamarajabova

Harakatlar va kombinatsiyaga asoslangan ritmik harakat og'zaki nutqni rivojlantiradi degan xulosa logoritmika ta'limotida keltirilgan. Ritmika va logoritmika borasidagi ta'limotlar esa, bizga fonetik ritmikaning fiziologik, psixofiziologik, gigiyenik hamda korreksion imkoniyatlarini asoslashga yordam beradi. Harakatda hayot, shunday ekan, taklif etilayotgan fonetik ritmika korresion metodikasi eshitishida muammozi bo'lgan bolalarning barcha toifalarida nafaqat og'zaki nutqni shakllantirishga xizmat qiladi, balki organizmnning umumiyligi holatiga ham kompleks ta'sir ko'rsatadi. Harakat orqali bajarilgan barcha nutqiy materiallar kinestetik, nevrologik jihatdan qabul qilinadi, bunda miyada burmalar hosil bo'lishi tezlashadi va natijada xotira hosil bo'ladi. Paydo qilingan nutqiy ko'nikma muntazam takrorlansa, malakaga aylanadi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarning boshlang'ich etapi fonetik ritmika bo'lishi zarur deb hisoblaymiz, chunki L.S.Vigotskiy, A.Luriya, T.Vlasova, A.Pfaffenrod va boshqalar nutqning harakat bilan uyg'un rivojlanishini ilmiy tasdiqlaganlar. Chunki harakat nutqiy muloqotga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Muloqotga ehtiyoj bo'yicha bolalar harakatlarni amalga oshiradilar.

Fonetik ritmika mashg'ulotlari o'zbek tili xususiyatlariiga asosan modellashtirilishi lozim. Bunda tovushlar tasnifi tayanch mezondir. Agarda fonetik ritmika mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning eshitish va gapirish ko'nikmalari intensiv va tizimli shakllantirilsa,

eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida o'qishni davom ettirishiga ham erishiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida o'quvchilarning nutq imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan korreksion mashg'ulotlar pedagogik jarayonning asosiy shakli hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kar va zaif eshituvchi o'quvchilar mustaqil ravishda og'zaki nutqni egallay. Buning sababi shundaki, ularning eshitish qobiliyati mustaqil ravishda nutqni yetarli darajada egallah uchun yetarlicha rivojlanmagan. Yengil darajadagi eshitish buzilishi bo'lgan zaif eshituvchi bolalar umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan fanlarni to'liq o'zlashtiradilar va qo'shimcha korreksion fanlarni ham o'zlashtirishi kerak. Kar bolalarda eshitish qobiliyati zaif eshituvchilarga nisbatan ko'proq darajada yo'qotilgani sababli, ular bilan nutqni shakllantirish ishlari maxsus korreksion mashg'ulotlarda olib borilishi lozim.

Korreksion fanlar tarkibidagi Musiqiy ritmika darslarida o'quvchilarning nutqiy va psixofiziologik ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan korreksion yo'nalgan operatsiyalar amalga oshiriladi. Aynan musiqiy ritmika darslarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kompensator sezgilariga tayangan holda nutqi rivojlatniriladi. Afsuski, aksariyat muassasalarda korreksion mashg'ulotlarga, ayniqsa musiqiy ritmika mashg'ulotlariga 2-darajali mashg'ulot sifatida qaraladi, shuning uchun ham korreksion ish kutilgan natijalarni bermaydi. Bu esa qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan:

1. Kar va zaif eshituvchi bolalarda o'quv fanlarini o'zlashtirish hamda boshqalar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar, nutq zahirasi va bulardan samarali foydalanish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmayapti.
2. Eshitish qoldig'i mavjud bo'lsada, ularning og'zaki nutqdan foydalanish imkoniyatlari, nutqining prosodik tomoni orqada qolyapti, ya'ni o'quvchilar nutqiy nafas va ovozdan to'g'ri foydalana olmayaptilar.
3. Musiqiy ritmika mashg'ulotlari bo'yicha bir tizimga solingan dastur ishlab chiqilmaganligi.

Shu va boshqa bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lib, mazkur kamchiliklar natijasida kar va zaif eshituvchi bolalarning mustaqil nutqi rivojlanmay qolmoqda. Kar va zaif eshituvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlanirish esa, ularning ijtimoiylashuvi omiliidir. Mustaqil nutqning asosini ona tili tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish tashkil etadi. Tovushlarning to'g'ri talaffuziga erishishda nutqiy xotira, eshituv idroki kabi omilar zarurdir. Bunda bolaning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi harakatni barqarorlashtirish muhimdir. Demak aynan fonetik ritmika kar va zaif eshituvchi bolalarning harakat, ritm va nutq mutanosibligidagi rivojlanishini ta'minlaydigan yondashuvdir. Bu yondashuvni texnologiya va metod tarzida joriy qilish uchun keyingi bosqich ishlarimizni davom ettirdik. Bu xususda keyingi paragrafda bayon etiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlanirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb masala bo'lib, fonetik ritmika mashg'ulotlari bu yo'nalishda samarali metodika sifatida e'tirof etilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, fonetik ritmika harakat, ko'rish, eshitish va nutq faoliyatlarini uyg'unlashtirgan holda bolalarda sensor



integratsiyani kuchaytiradi. Bu esa, ayniqsa, kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatlar asosidagi mashg'ulotlar miyaning faoliyati, xotira va nutqiy ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Tadqiqotda bir qator olimlarning ishlanmalariga tayangan holda fonetik ritmikaning psixofiziologik va korreksion imkoniyatlari asoslari berildi. Shuningdek, mavjud muammolar – ritmik mashg'ulotlarning ikkilamchi tusda qaralishi, maxsus dasturlarning yo'qligi va o'quvchilarining nutqiy imkoniyatlarining cheklanganligi kabi holatlar tahlil qilindi. Natijada, fonetik ritmika bolalarda mustaqil og'zaki nutqni shakllantirish va ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilishda muhim metodika sifatida qo'llanilishi lozim degan xulosa berildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. chirchiq, 1(1), 70.
2. Ishmatova, O. S. (2022). Mavzu: Eshitishida nuqsoni bor bolalarni estetik tarbiyalashning muhim omil. uzbek scholar journal, 10, 333-336.
3. Ishmatova, O. S. (2022). Role of phonetic rhythm in correction of speech defects. galaxy international interdisciplinary research journal, 10(11), 487-491.
4. Xusnuddinova,Z.X. (2023). Alovida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. ta'lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
5. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.6. Ishmatova, O. (2023). The effectiveness of using phonetic rhythm in speech development of children with special needs. science and innovation, 2(b5), 232-236.
6. Ishmatova, O. & Xolmirzayeva Z. (2023, january). Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida oilaning ro'li. in международная конференция академических наук (vol. 2, no. 1, pp. 21-25)
7. Ishmatova, O. Alovida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda fonetik ritmikadan foydalanishning dolzarbliji va zarurati/ Муғаллим ҳем йзликсиз билимленидириў, 2024, 3/3 son. 699-706 bet

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ Ishmatova Ozoda Sirodjonovna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti, maxsus pedagogika kafedrasи o'qituvchisi. [Ишматова Озода Сироджоновна, преподаватель кафедры специальной педагогики факультета педагогики Чирчикского государственного педагогического университета], [Ozoda S. Ishmatova, Lecturer at the Department of Special Pedagogy, Faculty of Pedagogy, Chirchik State Pedagogical University].

